

Yangi O‘zbekistonning 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasida huquqning ustuvorligi

Mamlakatni 2022–2026-yillarda rivojlantirish tendensiyalari, shu jumladan, huquq tizimini rivojlantirish to‘g‘risida keng tasavvur beruvchi hujjat e’lon qilindi. Taraqqiyot strategiyasi davlatning inson bilan o‘zaro aloqasidagi qator muhim tamoyillarni o‘z ichiga olgan. Unda jami 100 ta maqsad qo‘yilgan bo‘lib, ularning ba’zilarini tahlil qilamiz.

9-maqsad. “Elektron hukumat” tizimini rivojlantirishga e’tibor

Hukumatning boshqa rivojlanish strategiyasi siyosiy-huquqiy ahamiyat kasb etdi: davlat boshqaruvi sohasidagi Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti 2014-yildan paradigmaning “elektron hukumatdan”(«e-government») “raqamli hukumatga («digital government») o‘zgarganini qayd etdi. Agar elektron hukumat hukumatlarning axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan ko‘ra yaxshiroq boshqarish vositasi sifatida baholansa, u holda raqamli hukumat – ommaviy qadriyatlarni yaratishda hukumatning modernizatsiya strategiyasining ajralmas qismi sifatida bahola-

nadi. Bu nafaqat davlat subyektlari, balki nodavlat tashkilotlar, xususiy kompaniyalar, fuqarolar va alohida shaxslarning uyushmalaridan tashkil topgan raqamli hukumat ekotizimiga tayanadi. IHTT (OECD Recommendation on Digital Government Strategies) tavsiyasiga koʻra, 7-bandda hatto IHTT a'zosi boʻlmagan mamlakatlarga ham mazkur tavsiyani e'tiborga olish taklif qilingan.

Raqamli hukumat muammolarini oʻrganishda u bilan bogʻliq boʻlgan va shaffoflik, halollik, hisobdorlik va manfaatdor tomonlarning demokratiya va inklyuziv oʻsishini qoʻllab-quvvatlash tamoyillarini ilgari suradigan yangi ommaviy boshqarish madaniyatini koʻrsatib oʻtish shart.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti 2016-yilda ochiq hukumat boʻyicha tadqiqotlar va fuqarolarning siyosiy jarayondagi ishtiroki asosida bunday yondashuv boshqaruvning barcha tarmoqlari va darajalarini "ochiq hukumatdan" "ochiq davlatga" oʻtish maqsadida jalb qilishini ta'kidlab oʻtgan. Ochiq hukumat tamoyillarini ijro hokimiyati doirasidan tashqariga integratsiya qilishni boshlagan davlatlar qonunchilik, sud hokimiyatida yangi boshqaruv madaniyatini shakllantirishga qaratilgan yanada toʻlaqonli yondashuv, ya'ni IHTT "ochiq davlat" deb e'lon qilgan maqsad sari harakat qilmoqda.

Avval Oʻzbekiston "Ochiq hukumat" (Open Government Partnership 2011) kabi xalqaro tashkilotda ishtirok etish gʻoyasiga moyil emas edi. Biroq, hozirgi kunga kelib, bu model bir mamlakatning tashqi siyosiy loyihasiga qaraganda ancha muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu jarayonlarda IHTTning roli uning ahamiyatini aniq koʻrsatib turibdi.

15-maqsad ishlar yurisdiksiyasidan qat'i nazar murojaatlarni qabul qilish tizimini tatbiq etishni nazarda tutadi

Fikrimizcha, mazkur qarorga tuzatish kiritish lozim. Vazifa boshqacharoq tarzda qoʻyilishi kerak: biz allaqachon protsessual kodekslarda muassasalar tasarrufida boʻlish masalalarini hal qilishimiz va bunda moddiy huquq qonunlari, masalan, ma'muriy tartib-tamoyillar toʻgʻrisidagi qonunni yanada aniqroq ifoda etishimiz zarur edi. Ma'muriy tartib-tamoyillar masalasida ularni qoʻllash doirasining aniq emasligi sababli muayyan muammolar yuzaga keldi.

Masalan, Oʻzbekiston Respublikasining Ma'muriy sud ishlarini yuritish toʻgʻrisidagi kodeksi 27^1-moddasi ancha jimjimador ifodalangan. Misol uchun, fuqarolarning oʻz-oʻzini boshqarish idoralarining investitsion shartnoma shartlari boʻyicha bahslari deyilganda nima nazarda tutilgan? Yoki yana bir misol: Ma'muriy tartib-taomillar toʻgʻrisidagi qonun uning qoidalari jamoat xavfsizligi va huquq-tartibot sohasida qoʻllanilishini rad etdi. Ammo shubha yoʻqki, miting va namoyishlar oʻtkazish boʻyicha munozaralar – doimo ma'muriy tartib-taomillar institutining bir qismi hisoblangan va faqatgina ma'muriy sudlarda koʻrilishi mumkin boʻlgan hal qiluvchi yoki pasport ma'muriy amaliyotidagi ziddiyatlar kabi ommaviy munozaralardir. Bunday manfaatlar toʻqnashuvida ishlarni vakolatli sudga berish masalasi qanday hal qilinishi mumkin? Muammolar shundayligicha qolaveradi. Demak, arizalarni qabul qilishning boshqa modelini yaratish toʻgʻrisida fikr yuritish kerak, ammo bunda tegishli prosessual kodekslarni parallel va tizimli ravishda oʻzgartirish lozim boʻladi. Bu 15-maqsadni amalga oshirishga yaqqol ta'sir koʻrsatadi.

Huquqni muhofaza qilish idoralarining yangi imijini shakllantirish va ichki ishlar idoralarini xalqchil professional tuzilmaga aylantirish boʻyicha 17-maqsad

Bugungi kunda huquqni muhofaza qilish idoralari maxsus va professional tuzilma hisoblanadi.

Fikrimizcha, "xalqchil tuzilma" iborasi shunchaki chiroyli, ifodali soʻz birikmasi. Birinchidan, biz bu deklaratsiyaga qanchalik ijobiy gʻoyalarni qoʻshmaylik, baribir u xalqona boʻlolmaydi. Bu axir oʻtgan 30 yil davomida samara bera olmagan militsiya tamoyili asosida qurilgan eski tajriba-ku. Hozirgi vaqtda huquqni muhofaza qilish organlari – oʻta maxsus va professional tuzilmadir. Uning faqatgina ommaviy va shaffofligini ta'minlash kerak xolos: ommaviy – demak, "hamma uchun va har bir insonni himoya qilgan holda" ishlash, shaffoflik esa axborot ochiqligi tamoyillari asosida faoliyat yuritishdir.

Ikkinchidan, mashhur Rechtsstaat tizimida politsiyaga baho berish boʻyicha birinchilikni olgan nemislarning ta'kidlashicha, politsiya faoliyati – faqatgina davlat faoliyati va bu isbot talab qilmaydigan haqiqatdir. Koʻpincha ular Hegeldan

sitata keltiradilar – xavfsizlikka intilish odati davlat ta'sis etgan "maxsus idoralar faoliyatining natijasidir".

Shu tarzda, O'zbekiston davlat boshqaruvidagi yangilanishlarni e'tiborga olgan holda 17-maqsadda "xizmat ko'rsatuvchi maxsus tuzilma"ni ko'rsatib o'tish maqsadga muvofiq.

Va bu xizmatlar qanchalik qulay bo'lib borsa, davlat idoralari shunchalik xalqchil bo'lib boradi. Chuqur huquqiy mazmun va samarali amaliy ahamiyat ham ana shundadir.

19-maqsad o'z oldiga advokatura maqomini boshqacha talqin qilish vazifasini qo'ygan

Davlat advokatura institutini o'z-o'zini boshqarish tizimiga to'liq o'tkazishga qaror qilgani muhim ahamiyatga ega. Bu allaqachon aniq va ravshan edi. Vazifani shu yilning o'zida, advokatura va advokatlik faoliyati to'g'risida qonun qabul qilish orqali amalga oshirish mumkin bo'lib, buni advokatlar hamjamiyati tomonidan tayyorlangan konsepsiya tahririda amalga oshirish zarur. Ular xalqaro andozalar asosida ishlab chiqilgan. Bu ishlarni nafaqat tezkor, balki tizimli ravishda, barcha protsessual kodekslarni qamrab olgan holda amalga oshirmoq darkor. Advokatlarning mustaqil maqomi – rivojlangan huquqiy tizim standarti bo'lib, uning muqobili mavjud emas. Shunday ham bu 2003-yildan buyon paysalga solib kelinmoqda. Bu narsa aholining odil sudga bo'lgan ishonchi yo'qolishiga olib keladi.

16-maqsadda jamoat xavfsizligini (va faqat unigina emas) ta'minlashning samarali tizimini yaratish to'g'risida fikrlar keltirilgan. Bu yerda adolat va qonun ustuvorligini ta'minlash uchun, "...qarorning qonuniyligini isbotlash majburiyati uni qabul qilgan mansabdor shaxsga (aybsizlik prezumpsiyasi) yuklanadigan tartib o'rnatish" nazarda tutilgan. Bu ma'muriy-huquqiy munosabatlarga tegishli bo'lib, bunda qarorning qonuniyligini isbotlash, kerakli taomilga rioya qilish majburiyati ommaviy organ zimmasida bo'ladi, shu munosabat bilan yuzaga keladigan har qanday shubha-gumonlar ommaviy-huquqiy munosabatdagi zaif tomon, ya'ni fuqaro foydasiga talqin etilishi lozim. «In dubio pro reo» tamoyil sifatida allaqachon, ya'ni 1998-yildan buyon O'zbekistonning ma'muriy va moliyaviy huquqida belgilangan. Ammo, afsuski, ish bermagan.

Vazifaga muvofiq davlat kamida me'yorlar paketini ishlab chiqishni rejalashtirmoqdaki, ularga ko'ra, amaldagi sharoitlarni isbotlash bo'yicha ma'muriy idora tomonidan ma'muriy qaror chiqarish bilan bog'liq bo'lgan yoki ma'muriy qaror chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan va shaxsning huquq va erkinliklarini buzadigan, bunday davlat aralashuvi zaruriyatini keltirib chiqaradigan noqonuniy ommaviy aralashuv tegishli ma'muriy idora zimmasida bo'ladi. Bu haqiqatan ham juda muhim, ammo yangi tartibning samaradorligi me'yorlar paketidagi yondashuvlarning chuqurligiga bog'liq bo'ladi.

Davlat xizmatlari bo'yicha maqsadlar

Birinchidan, mazkur atamadan voz kechish lozim, chunki hozirgi vaqtda faqat "ommaviy xizmatlar"gina obyektivdir. Bu tizim subyektlari orasida nafaqat davlat idoralari, balki nodavlat tuzilmalari ham bo'lishi mumkinligi buning sabablaridan biri bo'la oladi.

Ikkinchidan, ommaviy xizmatlar tizimi huquqiy taomillarning huquq ustuvorligi konstitutsiyaviy konsepsiyasiga asoslangan ta'rifiga, ya'ni qonun chiqaruvchi tomonidan ishlab chiqilgan qonun asosiga quriladi. O'zbekiston esa ma'muriy huquqning mazkur asosiy institutini tartibga solishning milliy doirasiga ega emas. Boshqacha aytganda, barcha yuridik talablar alohida bir insonni qonun salohiyati orqali davlat idorasidan eng ishonchli himoya qila oladigan parlament tomonidan ifodalanishi lozim.

Hozircha faqat qonungina fuqaroning ijro hokimiyati idoralari oldidagi imkoniyatlarini kuchaytira olishi mumkin. Faqat qonun chiqaruvchigina ommaviy idora tomonidan ko'rsatiladigan xizmatni huquqiy tartibga solishda subyektivizmni istisno qilgan holda ommaviy xizmatlar tizimini rivojlantirish yo'nalishini xolis belgilay oladi. Mazkur loyiha vazifalari sirasiga "Ommaviy xizmatlar" qonunini ishlab chiqishni boshlash to'g'risidagi nizomni kiritish zarur.

L. B. XVAN,
yuridik fanlar nomzodi